OTA – ONA QADRI – INSONIYLIK, E`TIQOD VA MA`NAVIY KAMOLOT MEZONI

Ne`matjonova Maxfiratxon
Farğona viloyati Söx tumani 1-sonli texnikumi öquvçisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24437131

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onaning inson hayotidagi beqiyos örni, farzandlar tarbiyasidagi ma`naviy va axloqiy ahamiyati, ijtimoiy-pedagogik hamda diniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ota-ona va farzandlar örtasidagi munosabatlar oddiy yoki ijtimoiy boğliqlik emas, balki insonning ma`naviy dunyoqaraşi va axloqiy qiyofasini şakllantiruvçi muhim omil sifatida talqin etiladi. Şuningdek, Qur`oni karim oyatlari va Payğambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida ota-onaga ehtirom körsatiş masalalari yoritiladi. Zamonaviy jamiyatda avlodlar örtasida munosabatlar, ota-onaning kundan-kunga keksayişi, farzandlik mas`uliyatlari va oilaviy qadriyatlarning saqlanişi bilan boğliq masalalar keng muhokama qilinadi. Maqolada ota-onani qadrlaş insoniylik va ma`naviy yetuklikning muhim mezoni ekanligi asoslab beriladi.

Kalit sözlar: Ota-ona qadri, farzandlik burçi, ma`naviy kamolot, islomiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, mehr- oqibat, ruhiy yaqinlik, oilaviy mas`uliyat.

Inson hayotida şunday qadriyatlar borki, ularning mohiyatini moddiy boyliklar, vaqt yoki boşqa mezonlar bilan ölçab bölmaydi. Şunday eng bebaho ne`matlardan biri bu-ota-onadir. Inson dunyoga kelganidan boşlab hayotni, işonçni, mehr va muhabbatni dastlab ota-onasi orqali anglaydi. Biroq ota-onaning farzand hayotidagi örni faqat dunyoga keltiriş yoki voyaga yetkaziş bilan çegaralanib qolmaydi. Ular insonning dunyoqaraşi, axloqiy qaraşlari, ruhiy olami va kelajakdagi hayotiy pozitsiyasining şakllanişida ham muhim örin tutadi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, ota-ona va farzand örtasidagi munosabatlar insonning hayot oldidagi eng dastlabki mas`uliyatlardan biri hisoblanadi. Farzand ota-onasidan nafaqat hayot, balki sabr, fidoyilik, mehr va insoniylik saboqlarini ham oladi. Şu ma`noda, ota-onaga munosabat insonning özligini anglaşida va ma`naviy kamolotga erişişida muhim mezon hisoblanadi.

Bugungi raqamli texnologiyalar, globallaşuv va tezkor ijtimoiy özgarişlar davrida oilaviy munosabatlarning mazmuni ham özgarib bormoqda. Ayrim hollarda vaqt tanqisligi, moddiy munosabatlarning ustuvorligi, avlodlar örtasidagi fikriy tafovut va özaro muloqotning kamayişi oilaviy yaqinlikka salbiy ta`sir körsatişi mumkin. Şu sababli ota-ona qadri, oilaviy mehr-oqibat va farzandlik mas`uliyati masalalarini çuqur örganiş dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Uşbu maqolaning asosiy maqsadi – ota-ona va farzand munosabatlarini falsafiy, ijtimoiy, ma`naviy va islomiy nuqtayi nazardan tahlil qiliş hamda yoş avlodda ota-onaga nisbatan ongli hurmat va mas`uliyat tuyğusini şakllantiriş zarurligini asoslaşdan iborat.

Ota-ona–inson ma`naviy olamining ilk poydevori – Insonning şaxs sifatida şakllanişi murakkab va uzluksiz jarayon bölib, uning dastlabki bosqiçlari oiladan boşlanadi. Oila inson uçun nafaqat yaşaş maskani, balki axloqiy me`yorlar, ma`naviy qadriyatlar va hayotiy qaraşlar şakllanadigan ilk tarbiya muhitidir. Farzand dastlab mehr va nafrat, yaxşilik va yomonlik, hurmat va mas`uliyat kabi tuşunçalarning mazmunini oiladagi munosabatlar orqali anglay boşlaydi.

Ota-ona farzand tarbiyasidagi örni faqat unga bilim va hayotiy könikmalar beriş bilan çeklanmaydi. Ular farzandning ruhiy dunyosi, mustaqil fikrlaşi, özига bölgan işonçi va jamiyatdagi örnini anglaşiga ham ta`sir körsatadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ayniqsa, oiladagi samimiy muhit, özaro hurmat va mehr- muhabbat bolaning soğlom ma`naviy rivojlanişi uçun muhim şartlardan hisoblanadi.

Pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, farzand tarbiyasida ota-onaning şaxsiy namunasi alohida ahamiyatga ega. Çunki, bola köpinça eşitgan nasihatlaridan köra, hayotda kuzatgan xatti- harakatlaridan köproq örnak oladi. Ota-onaning sabr-toqati, halolligi, mehnatsevarligi va boşqalarga bölgan munosabati farzandning axloqiy qaraşlari şakllanişida muhim omil bölib xizmat qiladi. Şu sababli oilani insonning birinçi ma`naviy maktabi, ota-onani esa uning dastlabki tarbiyaçilari sifatida baholaş mumkindir. Zero, insonning kelajakdagi munosabatlari va hayotiy qaraşlarida bolalik davrida oilada olgan tarbiyasining muayyan izlari saqlanib qoladi.

Ota-onaning farzand hayotidagi örni haqida fikr yuritar ekanmiz, ularning farzandiga qoldiradigan eng bebaho merosi moddiy boylik emas, balki sifatli ta`lim-tarbiya, odob-axloq va hayotiy saboqlar ekanini alohida ta`kidlaş lozim. Moddiy boylik vaqt ötişi bilan kamayişi yoki yöqolişi mumkin, lekin inson qalbiga singdirilgan yaxşi tarbiya uning butun umri davomida yöl körsatuvçi ma`naviy boylik bölib qoladi. Xalqimizda ``Quş uyasida körganini qiladi`` degan maqolni bejizga aytişmagan. Uşbu hikmatli söz oiladagi muhit farzandning kelajakdagi hayotiga qançalik ta`sir körsatişini anglatadi. Inson ota-onasidan olgan tarbiyasini kelajakda öz farzandlariga yetkaziş ma`naviy qadriyatlarning avlodlar davomiyligini ta`minlaydi.

Yana bir muhim jihat şundaki, ota-onaga hurmat faqat ularning aytgan gaplariga quloq soliş bilangina çeklanib qolmaydi. Haqiqiy farzandlik mas`uliyati ota-onaning qalbini tuşuniş, ularning taşviş va ehtiyojlarini imkon qadar sözsiz his qila bilişda ham namoyon böladi.

Hayotda inson ba`zan öziga doimo yaqin bölgan ne`matlarning qadriga yetmaydi. Vaqtini turli köngiloçar maşğulotlarga sarflab, ota-onasiga ajratişi kerak bölgan e`tibor va mehrni unutişi mumkin. ``Oldingdan oqqan suvni qadri yöq`` degan maqol bor.Bu hikmat inson yonida doimo mavjud ne`matlarni ham qadrlaşi kerakligini anglatadi. Ota-onaning roziligi va duosi farzand uçun katta ma`naviy tayanç hisoblanadi.

Demak, ota-onani qadrlaş faqat ularning yonida böliş emas, balki ular borligida mehr körsatiş, holidan xabar oliş, ehtiyojlarini anglaş va bergan tarbiyasiga munosib farzand bölib voyaga yetişdir.

Islom dinida ota-onaning yuksak maqomi – Islom dinida ota-onaga hurmat körsatiş, ularning roziligini oliş va ularga yaxşilik qiliş eng muhim farzandlik burçlardan biridir. Islom ta`limotida ota-onaga ehtirom masalasi insonning Alloh taologa bölgan e`tiqodi va şukronalik tuyğusi bilan çambarças boğliq holda bayon etiladi.

Qur`oni karimning ``Isrö` surasi 23-24- oyatlarida Alloh taologa ibodat qiliş bilan bir qatorda ota-onaga yaxşilik qiliş buyuriladi. Mazkur oyatlarda ota-onaga hatto ``Uf`` demaslik, ularga qöpol muomala qilmaslik, aksinça muloyim böliş ta`kidlangan.

Payğambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida ham ota-onaga yaxşilik qilişning alohida örni ta`kidlangan. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda bir kişi Rasulullоh (s.a.v)dan kimga eng avvalo yaxşilik qiliş kerakligini söraganida, u zot uç marta ``Onangga``, söngra ``Otangga`` deb javob berganlar. Uşbu hadisda onaning farzand tarbiyasi yölida çekkan maşaqqatlari, mehrining naqadar uluğligini anglatadi.

Demak, Islom dinida ota-onaga ehtirom insonning e`tiqodi, vijdoni va axloqiy kamolotini namoyon etuvçi muhim mezonlardan biridir.

Xulosa va Takliflar

Xulosa qilib aytganda, ota-ona inson hayotidagi eng uluğ va bebaho ne`matlardan biri hisoblanadi. Ularning farzand tarbiyasiga qöşgan hissasi, mehr-muhabbatini ölçab bölmaydi. Ota-ona roziligini oliş, ularning könglini asraş va duolarini qadrlaş kerak.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Şu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari suriş mumkin.

1. Yoş avlod ongida ota-onaga hurmat va farzandlik tuyğularini yanada mustahkamlaş.
2. Oilada samimiy muloqot muhitini rivojlantiriş.
3. Farzandlarni ota-onaning mehnati va hayotiy tajribasini qadrlaş ruhida tarbiyalaş.

Eng muhimi ota-onani qadrlaşni kelajakda emas, balki hozirdan baholaş lozim. Çunki, e`tiborni vaqtida körsatmaslik inson hayotida armonga aylanişi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur`oni karim ``Isrö` surasi 23-24- oyatlar.
2. Imom al-Buxoriy. Al-jomu`as-sahih. Ota-onaga yaxşilik qiliş haqidagi hadis.
3. Imom Muslim Sahih Muslim. Ota-onaga yaxşilik qiliş haqidagi hadislar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.